

AMIR TEMUR DAVLATINING BOSHQARUVI

O‘razaliyeva Gulnora

Kirish

O‘rta asrlar Sharq tarixida Amir Temur va uning davlat boshqaruv tizimi alohida o‘rin tutadi. U XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yirik saltanat barpo etib, davlatni kuchli markazlashgan tuzum asosida idora qildi. Amir Temur nafaqat sarkarda, balki mohir davlat arbobi sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning boshqaruv uslubi, adolat tamoyillari va qonun-qoidalari keyingi davrlarda ham ko‘plab davlatlarga namuna bo‘ldi.

Asosiy

Temurbekning turk yoki mo‘g‘ul ekanligi to‘g‘risidagi bilimlar yolg‘iz kunbotar olamidagina tortishmali. Rui Gonsales de Klavixo Temurbekning kelib chiqishini Chig‘atoy ulusining ellariga bog‘lasa, nabirasi Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek nomi bilan tanilgan) „Tarix-i arba ulus“ kitobida Shajarat al-atrak (Turklar kelib chiqishi)ni ko‘rsatadi va unga ko‘ra Temurbek va ota-bobolari Yofas o‘g‘li Turkning bolalari ekanligini aytadi. Turk o‘tli kishi esa butun turklarning otasi ekanligi ko‘rsatiladi. Kunbotar ellarining o‘tmish yozuvchilari o‘rtasida Temurbekni turk-mo‘g‘ul yoki turklashgan mo‘g‘ul kelib chiqishli ekanligi keng yoyilgan. Biroq Richard Bulliet (A Global history) Temurbekning qabilasi Barloslarning mo‘g‘ullarga aloqasi yo‘qligini so‘zlasa, Rene Grousset (qarang, L’empire des steppes, Atilla, Gengis-Khan, Tamerlan, 1939 Paris) Temurbekning kelib chiqishi Chingizxonga bog‘langanligini yolg‘iz o‘z chog‘ida yozilgan kitoblardagina ekanini, biroq uni mo‘g‘ullik bilan umuman birligi yo‘qligini va Turk ekanligini yozadi. Temurbek tarixi bo‘yicha 3 salmoqli kitobdan birisi sanalgan Ahmad ibn Arabshohning „Ajoyib ul-maqdur fi navaib at-Taymur“ kitobida bo‘lsa Temurbekni barlos turki ekanligini yoziladi:

„Turklarda ham Arablarda bo‘lganidek qabilalar va urug‘lar bordir va har bir qabilada vazir (qabilaboshi) bordir. U o‘z qabilasi ichida yashash tarzi bo‘yicha maslahat beradigan yorituvchi chiroqdir. Ulardan birinchisi Arlot, ikkinchisi Jaloyir, uchinchisi Qavchin, to‘rtinchisi Barlosdir. Temur(bek) to‘rtichisidan chiqqandir.“ (4-bet).

Temurbek Turk ekanligidan g‘ururlanar, o‘z o‘rnida o‘ziga qarata aytilgan Mo‘g‘ul so‘zini yomon ko‘rardi (Yusuf Husayn Xon, Two studies in early mongol history, 1976). O‘zbek tarix yozuvchilari Temurbekning so‘zsiz turk bo‘lganligini aytib keladi. Temurbekning o‘zi yozganligi aytiladigan Mulfazot-i Temuriy (Temur qissalari yoki Temur tuzuklari) kitobida Tarag‘aybek o‘g‘li bilan so‘zlashganda (Zuhriddin Bobokalonov, 2004, 48-bet) turk kelib chiqishli ekanligini aytgani yoziladi.

Amir Temur davlatni boshqarishda “Temur tuzuklari”ga tayangan. Bu tuzuklar davlat tuzilishi, ijtimoiy-siyosiy tartib, harbiy intizom, soliq tizimi va adolat mezonlarini belgilab bergan. Ularning asosiy maqsadi mamlakatda tartib va barqarorlikni ta‘minlash, xalq manfaatlarini himoya qilish, davlat qudratini mustahkamlashdan iborat edi.

1. Markazlashgan boshqaruv

Temur davlatini kuchli markazlashgan monarxiya asosida boshqargan. Saltanat markazida Sohibqironning o‘zi turib, barcha yirik masalalar uning nazorati ostida hal qilingan. U davlat ishlarini shaxsan boshqarar, vazirlar va amirlarni qattiq intizom ostida ushlab turgan. Shu sababli davlatda tartib-intizom, barqarorlik va kuchli boshqaruv tizimi yuzaga kelgan.

2. Harbiy va ma‘muriy tuzum

Amir Temur davlatining tayanchi harbiy kuch edi. U qo‘shinlarni o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga bo‘lib, har bir qismini alohida amirlar boshqarishini yo‘lga qo‘ygan. Bu tizim qo‘shinlar ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlagan. Shuningdek, viloyatlar hokimlari Sohibqiron tomonidan tayinlanib, ularning faoliyati doimiy ravishda nazorat qilinar edi.

3. Adolat va qonun ustuvorligi

Amir Temur boshqaruvining eng muhim tamoyillaridan biri adolat edi. U o‘z tuzuklarida “Saltanatning qudrati adolat bilan bo‘ladi” degan shiorni ilgari surgan. Har bir fuqaroning huquqi himoya qilingan, soliq tizimida ham tenglikka e‘tibor berilgan. Mansabdor shaxslarning suiiste‘mol qilishi qat‘iyan jazolangan.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat

Amir Temur savdo-sotiq va hunarmandchilikka katta ahamiyat bergan. Karvonsaroylar, yo‘llar va ko‘priklar barpo etilib, xalqning farovonligi oshirilgan. Tinchlik yillari davomida dehqonchilik, hunarmandchilik va ilm-fan rivoj topgan. Temur olimlar, shoirlar va ustalarga homiylik qilib, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan.

5. Diplomatiya va tashqi siyosat

Amir Temur tashqi siyosatda ham qat‘iyatli va dono yo‘l tutgan. U ko‘plab davlatlar bilan siyosiy va savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Yirik davlatlarga elchilar yuborib, ularning hamkorligini ta‘minlashga intilgan. Bu esa uning saltanatining nufuzini yanada oshirgan.

Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz Vatanimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini ham bilishni istaydi, albatta. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Temur tuzuklarini tarixiy-huquqiy tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Zero, o‘tmish merosimiz, uning boy davlatchilik va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo‘llanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko‘maklashmoqda. Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya ko‘p va xilma-xil bo‘lib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va g‘oyat mashhurligidan dalolat beradi. Amir Temur, Temuriylar davlati, uning tashkil topishi masalalariga bag‘ishlangan, chet ellarda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili ham bir qator olimlarimizning kitoblarida yoritilgan. «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda.

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu saltanat – deb ta’kidlaydi, Temur o‘zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi.

2. Amir Temurning qarashlariga ko‘ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to‘la ma’lumotlarga ega bo‘lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim.

3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan er egaligiga katta e’tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko‘zda tutib, o‘zgartirishga harakat qildi.

4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi.

5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e’tibor bergan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan. Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o‘z fuqarolariga bo‘lgan rahmdilligi, saxovatida-dir. Qur’onda «Taxlaku bi-axloq Alloh» deyilganidek, – deb yozadi Temur, – agar podshoh, biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. Mening barcha ishlarimda ana shunday podshohlar menga ibrat bo‘ldi».2 Temur o‘z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o‘z siyosatida haq yo‘lini tanlagan.

Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o‘z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo‘ysundira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo‘lard.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, XIV-XV asr mutafakkirlari o‘z ijodlari va g‘oyaviy karashlarida adolatli va ma’rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko‘rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko‘rsatganlar. Shunisi qiziqarliki, agar ular o‘zlarining «Ideal davlat» nomli g‘oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta’riflagan bo‘lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo‘llay oldi va o‘zida buxislat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukumdor sifatida maydonga chiqdi. O‘z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog‘ini baland ko‘tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo‘ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib-intizomga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomonlikni maqsad qilgan kishilarni jilovlovchi va yaxshilik yo‘lida jafu chekuvchilarni quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo‘ysunish kerak, deb hisoblaydi.

Oltin O‘rda davlati – To‘qtamishxonning yengilishlaridan keyin Temurbek Oltin O‘rdada o‘zi xon belgilab keladi va savdo aloqalarini saqlaydi. Oltin O‘rda Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga to‘la kirmasada ortiq xavf tug‘dirmaydigan davlatga aylanadi. Oltin O‘rda davlatining cho‘kish davri boshlanadi.

Mamluqlilar davlati – Shomdagi qaqshatqich yengilishdan keyin Mamluqli davlati Temurbekning so‘rovlarini, elchi Atalmishni qo‘yib yuborish va so‘ralgan mollarni berish, o‘taydi. Urushdan oldin va keyin bir necha bora 2 tomondan ham elchilar borib keladi. Maktublar almashiniladi. Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi.

Jete davlati – 5 bora og‘ir yurishlardan so‘ng Jete yoki Mo‘g‘uliston Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga to‘la kirmasada ortiq xavf tug‘dirmaydigan davlatga aylanadi.

Dehli sultonligi – Dehlidagi qayta tiklanib bo‘lmas yengilishdan keyin Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi.

Usmonli sultonligi – Anqara urushidagi qaqshatqich yengilishdan keyin Usmonli davlati Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi. Usmonli davlatida bir necha yillik Fitrat chog‘i boshlanadi.

Gurji qirolligi – bir necha bora talanishi va bosib olinishi ortidan Temurbek davlati bo‘yinturug‘i ostiga kiradi. Yillik belgilangan soliq to‘lashi belgilanadi.

Eron, Afg‘oniston va Kavkazdagi davlatlar – barchasi Temurbek davlati ichiga kiradi.

Rus davlati – To‘qtamishxonning yengilishi ortidan Temurbekka bir qancha sovg‘a salomlar o‘taydi. Bir qancha shaharlari tekislanadi. Moskva yag‘mosi esa tarixchilar orasida tortishmali. Ko‘plab rus tarixchilari, aynan kim Yakubovskiy. A.Y va Grekov. B. D „Oltin O‘rda va uning qulashi“(Zolotaya Orda i ee padenie) kitobida Temurbek Mashkav(Moskva)ni olmaganligi, Mashkav olinganligi va talanganligi to‘g‘risida o‘z kitoblarida bilgi bergan Nazimiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning jug‘rofiya(geografiya) bilimlari Rus geografiyasi borasida yetarli emasligini, ular ikkovlari birdek adashib Ryazanni Moskva deb o‘ylaganliklarini aytib o‘tadilar. Biroq Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyda Moskvani va undanda uzoqroqda, shimolroqda bo‘lgan yerlarningda aniq geografik bilimlari borligiga tegishli bir necha bitiklar uchraydi.

Fransiya qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalari o‘rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo‘ladi.

Kastiliya(Ispaniya) qirolligi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Temurbek davlati bilan savdo aloqalarini o‘rnatilishi kelishiladi. Elchilar va maktublar almashinuvi bo‘ladi.

Vizantiya imperiyasi – Usmonli davlati yengilishi ortidan Istanbul uchun Temurbekka juzya(din solig‘i)ni o‘taydi. Elchilar almashinuvi bo‘ladi.

Xitoy davlati (Ming imperiyasi – Xitoy bilan savdo aloqalari va elchilar almashinuvi mavjud bo‘lgan. Temurbekning o‘limi ortidan Xitoy yurishi qoldiriladi.

Xulosa

Amir Temur davlat boshqaruvi o‘z davrining eng mukammal tizimlaridan biri bo‘lgan. U kuchli markazlashgan boshqaruv, adolat tamoyillari, qat‘iy harbiy intizom va iqtisodiy taraqqiyotga asoslangan edi. Sohibqiron o‘z tuzuklari orqali davlatni mustahkam asosda idora qilib, buyuk saltanat barpo etdi. Bugungi kunda ham Amir Temur boshqaruv tajribasi

va adolat haqidagi qarashlari dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Temur tuzuklari” – Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Rashididdin Fazlulloh. Jome’ ut-tavorix. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Vohidov R. Amir Temur va temuriylar davri tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.